

**O'ZBEKISTONDANDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING HUQUQIY KAFOLATLARI
— TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ZARUR OMILI SIFATIDA**

Qandimov Ilyos Qalandar o'g'li

Buxoro viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga ko'ra «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin».

Bu norma har bir fuqaroning mulkdor bo'lishi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini kafolatlaydi.

Yuqoridagi konstitutsiyaviy norma O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonun bilan ham belgilangan bo'lib, ushbu qonunning asosiy vazifalari fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishdan, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan, shuningdek tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Qonunning 3-moddasida tadbirkorlik tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) — tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Ushbu qonunda tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari alohida belgilangan bo'lib, ular quyidagi huquqlarga ega:

- qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirishga;
- yuridik shaxs bo'lgan boshqa tadbirkorlik subyektlarining muassislari (ishtirokchilari) bo'lishga;
- mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka egalik qilishga, undan foydalanish va uni tasarruf etishga;

- o'z faoliyati yo'nalishlarini, tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilarni va o'z tovarlarining (ishlarining, xizmatlarining) iste'molchilarini mustaqil ravishda tanlashga;
- tadbirkorlikdan cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olishga, bundan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bozorida ustun mavqeni egallab turgan tadbirkorlik faoliyati subyektlari mustasno;
- o'z tovarlarini (ishlarini, xizmatlarini), ishlab chiqarish chiqindilarini bozor konyunkturasidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilanadigan narxlar va tariflar bo'yicha yoki shartnoma asosida realizatsiya qilishga, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
- barcha ishlab chiqarish xarajatlarining o'rni qoplanib, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin qolgan daromadni (foydani) erkin tasarruf etishga, sud tartibidagi majburiy undiruv hollari bundan mustasno;
- kreditlar olishga, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini hamda o'zga mol-mulkini shartnoma shartlari asosida jalb etishga, shu jumladan binolarni, inshootlarni, uskunalarni va o'zga mol-mulkni olishga va (yoki) tekin, ijaraga (lizingga) olishga hamda ularni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga yo'naltirishga;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishga haqli.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Shuningdek, ushbu qonunda "Tadbirkorlik faoliyati subyekti huquqlarining ustuvorligi" prinsipi kafolatlangan bo'lib, unga ko'ra tadbirkorlik faoliyati subyektlarining davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek banklar bilan o'zaro munosabatlarida tadbirkorlik faoliyati subyekti huquqlarining ustuvorligi prinsipi amal qilib, unga muvofiq qonunchilikda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik faoliyati subyektining foydasiga talqin etiladi.

Bu qonunda ham tadbirkorlik faoliyati davlat tomonidan kafolatlangan bo'lib, 18-moddasida tadbirkorlik faoliyati erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlari, ya'ni, davlat iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza qilishini kafolatlashi, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi, mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi, tadbirkorlarga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy qarorlari,

ularning mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi hamda tadbirkorlik faoliyati subyektlari qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan va ta'xis hujjatlarida ko'rsatilmagan har qanday faoliyat turi bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shug'ullanishlari mumkinligi ko'rsatilgan. Xususan, ushbu qonunda tadbirkorlik faoliyati subyektlari huquqlarining quyidagi kafolatlari alohida belgilangan:

- Tadbirkorlik faoliyati subyektlari uchun noqulay bo'lgan qonunchilikdagi o'zgartishlardan kafolatlar;
- Tadbirkorlik subyektlarining qonunchilikda man etilmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish erkinligi kafolatlari;
- Tadbirkorlik subyektlarining o'z tovarlari (ishlari, xizmatlari) va daromadlarini (foydasini) tasarruf etish erkinligi kafolatlari;
- Pul mablag'larini tasarruf etish kafolatlari;
- Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyat erkinligi kafolatlari;
- Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlari kafolatlari;
- Fermer xo'jaliklari tomonidan yer uchastkalaridan foydalanish huquqi kafolatlari;
- Dehqon xo'jaliklari tomonidan yer uchastkalaridan foydalanish huquqi kafolatlari;
- Tadbirkorlik subyektlarining qimmatli qog'ozlar bozoriga, xomashyo, tovarlar va xizmatlar bozorlariga erkin kirish kafolatlari;
- Fermer va dehqon xo'jaliklarining moddiy-texnika resurslaridan, urug'lik materiallardan, ko'chatlardan va zotdor chorvadan erkin foydalanish kafolatlari;
- Fermer va dehqon xo'jaliklarining suv iste'molini amalga oshirish kafolatlari;
- Tadbirkorlik subyektlarining kredit resurslaridan foydalanish kafolatlari;
- Tadbirkorlik subyektlarining axborotdan foydalanish kafolatlari;
- Tadbirkorlik faoliyati subyektlariga berilgan imtiyozlar va preferensiyalarni qo'llashning kafolatlari;
- Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining murojaatlarini ko'rib chiqish kafolatlari;
- Tadbirkorlik faoliyati subyektlari mol-mulki natsionalizatsiya, musodara va rekvizitsiya qilinmasligining kafolatlari;

- Firma nomidan, tovar belgisidan (xizmat ko'rsatish belgisidan) foydalanish kafolatlari;

- Tadbirkorlik faoliyatiga aralashmaslik kafolatlari.

Yuqoridagi kafolatlardan kelib chiqqan holda tadbirkorlar manfaatini himoya qilish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va bu bo'yicha mansabdor shaxslarning ma'suliyatini oshirish maqsadida ba'zi rivojlanayotgan davlatlar singari amaldagi jinoyat kodeksiga qonuniy tadbirkorlik faoliyati olib borishga to'sqinlik qilish deb nomlangan yangi moddaning kiritilishi bu sohadagi katta qadam bo'di.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, amaldagi jinoyat qonunchiligiga bu yangi moddaning kiritilishi tadbirkorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga va tadbirkorlikning rivojlanishiga yaqindan yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyatini erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonuni. 2012 y.
3. <https://lex.uz/>